



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna	
Texnologik mashinalar va jihozlarni ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish	15
Elmanov Abbos Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli	19
Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	28
Gulmira Jumanova	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati.....	33
Erboyev Suxrob Abdusalomovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi	37
Davlatova Zebo Haydarovna	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari	40
Ochilova Farida Baxriddinovna	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari.....	44
Qo'chqarova Oysha Oltibayevna	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
Sevara Mamatkarimova	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
Курбанова Шайра Исмаиловна	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari.....	63
Muminova Feruza Farxodovna	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati.....	70
Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	74
Saidova Dilnoza Maripovna	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям	82
Мукинова Динора Азаматовна	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti	87
Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI METODISTINING BOSHQARUV FUNKSIYALARI



Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna
Uchtepa tumani 450-DMTT direktori

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish va muloqot madaniyatini shakllantirishdan iborat. Nutqni rivojlantirishning innovatsion modellari hamda ularning ta'limiy natijalari ilmiy tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvida nutq ko'nikmalarining poydevor vazifasini bajarishi bilan belgilanadi. Ilmiy yangilik sifatida o'yin texnologiyalari va raqamli vositalarning integratsiyalashgan modeli taklif etiladi. Xulosalar ta'lim jarayonini individuallashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, nutq ko'nikmalari, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, muloqot madaniyati, lug'at boyligi, innovatsiya, ta'lim samaradorligi.

Abstract: The role and effectiveness of modern pedagogical technologies in developing the speech competence of primary school students are examined. The purpose of the research is to enhance students' vocabulary and to develop communication culture through the application of interactive methods in the educational process. Innovative models of speech development and their educational outcomes are analyzed. The relevance of the topic is determined by the fact that speech skills serve as a foundation for students' social adaptation. As a scientific novelty, an integrated model combining game-based technologies and digital tools is proposed. The findings confirm the necessity of individualizing the educational process.

Key words: primary education, speech skills, pedagogical technologies, interactive methods, communication culture, vocabulary development, innovation, educational effectiveness.

Аннотация: Рассматриваются роль и эффективность современных педагогических технологий в развитии речевой компетенции учащихся начальных классов. Цель исследования заключается в обогащении словарного запаса и формировании культуры общения учащихся посредством использования интерактивных методов в учебном процессе. Анализируются инновационные модели развития речи и их образовательные результаты. Актуальность темы определяется тем, что речевые навыки выступают основой социальной адаптации учащихся. В качестве научной новизны предлагается интегрированная модель игровых технологий и цифровых инструментов. Выводы подтверждают необходимость индивидуализации образовательного процесса.

Ключевые слова: начальное образование, речевые навыки, педагогические технологии, интерактивные методы, культура общения, словарный запас, инновации, эффективность обучения.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik ishlarning asosiy mohiyati pedagoglar jamoasi va tarbiyachilarning kasbiy mahorat darajasini oshirishga qaratiladi. Metodik xizmatning eng muhim va asosiy vazifasi pedagog-tarbiyachilarni qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, shaxsiy sifatlarini shakllantirish hamda zamon talablarini qondirishdan iborat. Metodik ishlarni samarali tashkil etish orqali pedagog-xodimlarning malakasini oshirishga qo'yilgan talablarni amalga oshirishga erishiladi. Chunki metodik xizmat negizida malaka oshirish shakllari, ya'ni o'quv seminarlari, mahorat darslari, tajriba almashish kabi jarayonlar amalga oshiriladi. Metodik ishlar bolalarga ta'lim-tarbiya berish sifatini oshirishga yordam beradi, maktabgacha ta'lim tashkilotida samaradorlikka erishiladi hamda ta'lim jarayonini boshqarishning muhim omili sanaladi.

Metodik ishlar tarkibiga pedagogik faoliyatni takomillashtirish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish, ilg'or tajribalar va ilmiy-tadqiqot ishlarini amaliyotga tatbiq etish, pedagog-tarbiyachilarning uzluksiz malakasini oshirish, huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda ilm-fandagi so'nggi yutuqlar



bilan tanishtirib borish kabilar kiradi. Metodist tomonidan tarbiyachi-pedagoglarning ehtiyojlari va muammolari o'rganiladi hamda ularning kasbiy mahoratini oshirish amalga oshiriladi. Shuningdek, asosiy maqsadni to'g'ri belgilab olish, ta'lim tashkilotidagi vazifalarni aniqlash bilan birga muammolar yechimini topish ko'zda tutiladi. Maqsad va vazifalar negizida pedagoglarning mahoratini oshirish ta'minlanishi lozim. Metodik ishlarni aniqlash jarayonida faoliyat natijalari prognoz qilinadi hamda tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy mas'uliyati ham e'tiborga olinadi. Metodistning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

Shu bilan bir qatorda, metodik ishlar o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan uchta muhim bosqichni amalga oshirishni nazarda tutishi lozim:

1. Davlat va jamiyatning maktabgacha ta'limga qo'ygan talablari hamda ilg'or pedagogik tajribalarni uyg'unlashtirish;
2. Pedagogik jamoa va maktabgacha ta'lim tashkiloti maqsadlari integratsiyasini ta'minlash;
3. Har bir pedagog-tarbiyachiga individual yondashish.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha vazifalar bir-birini rivojlantiradi va innovatsion o'zgarishlarni taqozo etadi. Tashkil etilgan metodik xizmat ta'lim tashkilotidagi barcha pedagoglar faoliyatini rivojlantiradi. Ikkinchi tomondan esa, maktabgacha pedagogika fanidagi so'nggi yutuqlar va ilg'or pedagogik tajribalarni amaliyotga tatbiq etishni ko'zlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik ishlar ijtimoiy vazifalarga asoslangan bo'lishi, davlat va jamiyat talablarini bajarishi, yuqori tashkilotlarning ko'rsatmalari hamda buyruqlarini ijro etishi, shuningdek, har bir pedagogni to'g'ri yo'naltirishi lozim. Ilg'or tajribaga ega pedagog-tarbiyachilarning yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Metodistning muhim vazifalaridan biri maktabgacha pedagogika va psixologiya fanlaridagi so'nggi yutuqlarni bilishi hamda tarbiyachilarga tavsiya etishi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlashdan iborat. Pedagoglarning ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlanishi ham zarur.

Shuni ta'kidlash joizki, yuqorida keltirilgan birinchi vazifa muhim ahamiyatga ega bo'lib, agar har bir MTT pedagog-xodimlari mavjud huquqiy-me'yoriy hujjatlarni mukammal o'zlashtirmasa, muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasidagi yutuqlar va ilg'or tajribalar bilan hamnafas bo'lmasa, pedagogik faoliyatida muammolarga duch kelishi mumkin.

Ikkinchi vazifaning tub mohiyati pedagoglar jamoasining hamkorligi, bir maqsadga erishishdagi birligi, yagona kasbiy qadriyatlarga egaligi, o'quv-tarbiyaviy jarayon va natijalarini tahlil qilishni ifodalaydi. Tarbiyachilarning pedagogik faoliyatidagi kamchiliklar va metodik bo'shliqlarning oldini olish, maktabgacha ta'lim tashkiloti kesimida ilg'or tajribalarni keng targ'ib qilish, umumlashtirish, pedagogik mahoratni oshirish yo'llarini aniqlash metodistning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Tarbiyachilarni ortiqcha yuklama bilan band qilish, rasmiy topshiriqlarni ortiqcha talab etish orqali ulardagi kasbiy faollikni pasaytirish mumkin. Shu bois ularning pedagogik ijodkorligi va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot va tajriba ishlariga jalb etish zarur.

Metodik ishlarning uchinchi vazifasi tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, ularning bilim va malakalarini boyitish, didaktik, tarbiyaviy va psixologik jihatdan yangi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. MTTda tashkil etiladigan o'quv seminarlari, trening va debat shakllari orqali tarbiyachi-pedagoglarning dunyoqarashi kengayadi, jamiyat va ta'lim tizimi qo'ygan vazifalar ijro etiladi, ijod qilishga motivatsiya yuzaga keladi, bolalarni sevish va tarbiyalashga bo'lgan ishtiyoq ortadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik ishlarni boshqarish ta'lim-tarbiya mazmunini oshirish, tarbiyachilarning o'z-o'zini namoyon etishi, axloqiy sifatlar, insonparvarlik, pedagogik ishonch, qat'iyatlilik, xushfe'llik va bag'rikenglikni rivojlantirishga qaratilishi lozim. Tarbiyachilarning dialektik uslubda pedagogik tafakkurini rivojlantirish, tizimlilik, aniqlik va uddaburonlik, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish, pedagogik texnika va muloqotchanlikni takomillashtirish, bolalar bilan muloqot qilish yo'llarini o'rgatish, o'qitishning turli usul va vositalarini tatbiq etish, irodaviy sifatlarini namoyon etish, o'z-o'zini boshqarish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir.

Metodik ishlar – maqsadga qaratilgan, ilg'or tajribalar va ilm-fanga asoslangan, o'quv-tarbiya jarayonini tahlil qilishga yo'naltirilgan, o'zaro bog'liq harakatlar va chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, har bir pedagog-tarbiyachining kasbiy mahoratini sifatli ravishda oshirish, jamoaning ijodiy salohiyatini shakllantirish hamda tarbiyalanuvchilarning optimal rivojlanishiga erishishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik jarayonni boshqarish metodistning boshqaruv ko'nikmalariga bog'liq. Ilmiy adabiyotlar va manbalarda boshqaruv funksiyalarining turlari talqin etiladi.

Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etishda uslubchi quyidagi o'zaro bog'liq jarayonlarni amalga oshirishi zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish va boshqarishda metodistning o'rni ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Azizxo'jayeva N.N. 2006-yilda pedagogik texnologiyalarni o'qituvchining kasbiy mahorati bilan uzviy bog'liq holda talqin etib, metodik xizmatni pedagoglarning ijodiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim tizim sifatida asoslaydi. Muallif pedagogik jarayonni boshqarishda metodistning yo'naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi funksiyalarini alohida ta'kidlaydi.

Yo'ldoshev J.G' va Usmonov S.A. 2008-yilda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish jarayonida metodik ishlarining tizimliliigi va uzluksizligini asoslab beradilar. Ular metodist faoliyatida rejalashtirish, nazorat va tahlil kabi boshqaruv funksiyalarining uyg'unligini muhim omil sifatida ko'rsatadi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishda metodik xizmatning tashkiliy roli yuqori baholanadi.

G'ulomov A. va Ne'matov H. 1995-yilda ta'lim mazmunini takomillashtirishda metodik ishlarining ahamiyatini yoritib, pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi. Matchonov S. 2012-yilda boshlang'ich ta'lim metodikasida nutqni rivojlantirish jarayonlarini tahlil qilib, metodistning pedagogik jarayonni boshqarishdagi metodik yordam beruvchi funksiyalarini ko'rsatadi. Qosimova K., Matchonov S. va G'ulomova X. 2009-yilda esa o'qitish metodikasida tizimlilik, izchillik va nazoratning muhimligini asoslaydi.

Ziyodova T. 2002-yilda o'quvchilarning nutqni rivojlantirish jarayonida metodik ishlarining samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rsatib, pedagogik jarayonni boshqarishda metodistning maslahat beruvchi va yo'naltiruvchi rolini ochib beradi. Muallif metodik ishlarining sifatini oshirish orqali ta'lim samaradorligini ta'minlash mumkinligini ilmiy asoslaydi.

Xorijiy tadqiqotchilardan Vygotsky L.S. 1986-yilda nutq va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab, pedagogik boshqaruvda ijtimoiy muhit va hamkorlikning ahamiyatini ko'rsatadi.

Johnson D.W. va Johnson R.T. 1999-yilda kooperativ o'qitishning samaradorligini ilmiy jihatdan isbotlab, jamoaviy faoliyatni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqadi.

Richards J.C. va Rodgers T.S. 2001-yilda esa til o'qitish metodlarini tahlil qilib, ta'lim jarayonini samarali boshqarishda innovatsion yondashuvlarning muhimligini asoslaydi.

Ushbu ilmiy qarashlar metodistning boshqaruv funksiyalarini takomillashtirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar kompleks yondashuv asosida to'plandi va tahlil qilindi. Empirik ma'lumotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida metodistlar faoliyatini kuzatish, pedagog-tarbiyachilar bilan suhbat va anketa o'tkazish orqali olindi. Shuningdek, mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlar, metodik qo'llanmalar hamda ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, nazariy asoslar shakllantirildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy va tizimli tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, metodist faoliyatidagi boshqaruv funksiyalarining samaradorligi aniqlashtirildi. Statistika umumlashtirish va interpretatsiya qilish orqali natijalar asoslandi hamda muammoli jihatlar belgilandi. Tahlil jarayonida pedagogik monitoring natijalariga ham tayanilib, metodik ishlarining holati va rivojlanish tendensiyalari baholandi. Natijada ma'lumotlarning ishonchliligi ta'minlanib, xulosalar ilmiy asosda shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Metodik ishlar boshqaruvida axborot-tahlil jarayoni asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Rus olimasi K.Yu. Belaya tomonidan boshqaruv jarayonining samarasizligining qator sabablari aniqlangan. Xususan:

- tarbiyachi-pedagoglarni yangi axborot va ma'lumotlar bilan ta'minlashga diqqat-e'tibor qaratmaslik;
- ma'lumotlarni tartibsiz ravishda qabul qilish;
- aniq maqsad qo'yimaslik;
- eng oddiy texnika vositalari (magnitofon, doska va boshqalar)dan foydalanmaslik;
- pedagoglarga majburiyatlarni to'g'ri taqsimlamaslik.

Axborotlar bugungi kunda ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ulardan to'g'ri va samarali foydalanish metodistning boshqaruv mahoratiga bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkilotida axborot muhitini yaratish uchun uning mazmuni, manbalarning ilmiyligi, zamon talablariga mosligi e'tiborga olinadi. Pedagogik ma'lumotlarni qabul qilishning eng istiqbolli yo'li pedagogik monitoring hisoblanadi. Ma'lumotlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish natijasida metodik bo'shliqlar aniqlanadi. Uning asosida natijalarga munosabat o'zgaradi va muvaffaqiyatga erishish yo'llari saralanadi, eng muhimi, maqsadga erishiladi. Metodist faoliyatining amaliyotdagi holatini kuzatish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tahlil qilishga e'tibor qaratish muhimligi ko'rsatildi.



Metodik xizmat ko'rsatishdagi muammolardan biri reja, maqsad va bashorat har doim ham to'g'ri belgilanmasligidir. Ayrim holatlarda ular rasmiy ravishda qabul qilinadi, kutiladigan natija esa maqsadga mos kelmaydi. Tarbiyachi-pedagoglar faoliyatini tahlil etish jarayonida nafaqat mavjud muammolarni hal etish, balki kelgusida bajariladigan metodik ishlarni ham bashorat qilish kerak. Ta'lim sifatiga erishish esa uslubchining o'z faoliyatini avvaldan bashorat qila olishi, kasbiy majburiyatlari, ya'ni uning tashkilotchiligi, izlanuvchanligi, liderligi va yetakchiligiga bog'liq. Ma'lumki, reja maqsad asosida tuziladi va uning istiqboldagi natijasi tahlil qilinadi. Mazkur jarayon bevosita tashkil etish va ijro bilan bog'liq. Rejalashtirilgan ishlarning vaqti, mas'ullari aniqlanib, uni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak. Rejada o'quv yili uchun belgilangan asosiy vazifalarni ko'rsatish, shuningdek, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga muvofiq bolalar bilan tashkil etilgan faoliyat turlari hamda o'tkazilgan tibbiy va pedagogik ko'riklar natijalarini kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Metodik ishlarni tashkil etishda nazorat va pedagogik diagnostika muhim o'rin egallaydi. Barcha jarayon tahlil qilinadi va sabablar aniqlanadi. Bu esa barcha pedagog-tarbiyachilarni rasmiyatchilikdan qochishga, bolalarning o'zlashtirishini odilona baholashni ta'minlaydi. Pedagogik diagnostika mazmuni bir vaqtning o'zida ta'lim-tarbiya jarayoni va mustaqil faoliyatni tezkorlik bilan o'rganish va baholash, tuzatishlar kiritishdan iborat. Natijada o'quv-tarbiyaviy jarayon takomillashadi, tarbiyachilarning ixtisoslik bo'yicha bilimlari va kasbiy salohiyati ortadi.

Monitoring qilish orqali pedagogik jarayonni tartibga solish, nazorat qilish, ta'lim mazmunini hal qiluvchi muhim ko'rsatkichlarni aniqlash hamda muammoli va yuksaltiruvchi bosqichlarni belgilash imkoniyati yaratiladi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida sifatga erishish uchun metodik ishlarni boshqarishda quyidagi pedagogik shartlarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- nazorat qilish boshqaruv jarayonidagi yechimlarni qabul qilishda asosiy manba hisoblanadi;
- ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil etish;
- o'quv-tarbiya jarayonidagi muammo va to'siqlarni aniqlash;
- yangi metod va texnologiyalarni amaliyotga joriy etishdagi qiyinchiliklarni aniqlash;
- pedagogik jamoani ijodiy ishlash va rivojlanishga turtki berish.

Maktabgacha ta'limda metodik ishlar monitoringi bolalarning har tomonlama rivojlanishi bilan belgilanadi. Har bir tarbiyalanuvchining optimal darajada natijaga erishishi nazarda tutiladi. Metodik xizmat tarbiyachi-pedagoglarning mahoratini orttirish, aql bilan ish yuritish va o'z-o'ziga ta'lim berish, ularga ortiqcha yuklama qo'ymaslik orqali amalga oshiriladi. Samaraga erishishning muhim jihati pedagogik jamoada psixologik muhit yaratish, tarbiyachilarda ijodiy faollikni oshirish va o'z mehnati natijasidan qoniqish hosil qilishdir.

Metodik ishlarning natijasi o'quv yili yakunida aniqlanadi, yil davomida o'tkazilgan turli tadbirlar bilangina emas. Uslubchilar maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Buning uchun ta'lim-tarbiya jarayoni bolalarning yosh xususiyatlari va talablari asosida tashkil etilishi zarur. Samarali va qiziqarli o'quv materiallari yaratish uchun tarbiyalanuvchilar rivojlanishining psixologik-pedagogik jihatlarini puxta o'rganish talab etiladi. Metodist tarbiyachilarga bolalarda mantiqiy tafakkur, nutqni rivojlantirish, ijodiy va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiruvchi o'yinlar hamda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi bo'yicha ko'rsatma berishi kerak. Uslubchilar bolalarni har tomonlama yetuk etib rivojlantirish uchun tarbiyachi, psixolog, logoped, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi bilan uzviy aloqada bo'lishi lozim.

Tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirish darajasi, ijtimoiylashuvi, iqtidori va qobiliyatini rivojlantirish borasida ular bilan hamkorlikda ish olib boradi. Metodist tomonidan tarbiyachilarga ta'lim amaliyotidagi yangiliklarni tatbiq etish, o'quv mashg'ulotlarini bolalarning ehtiyojlari asosida tashkil etish va ularning bajarilishi nazorat qilinadi. Tarbiyalanuvchilarning ijtimoiylashuvi, emotsional va ijodiy rivojlanishi uchun turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladi. Tarbiyachi-pedagoglarning malakasini oshirish metodik ishlarning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Chunki tarbiyachining kasbiy mahorati ta'lim sifatini oshirishda muhim omil sanaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti nafaqat pedagogika va psixologiya, ixtisoslik fanlarini chuqur bilishi, balki innovatsion fikrlash va kreativlik sifatlariga ham ega bo'lishi lozim. Uslubchi doimiy ravishda yangi g'oya va yechimlarni izlashi kerak, chunki ular ta'lim oluvchilarni bilim olishga qiziqtiradi va yo'naltiradi. Agar metodik ishlar mana shunday tarzda amalga oshirilsa, har bir kichintoy o'zining iqtidori va qobiliyatini namoyon etadi hamda kelajakda maktab ta'limiga tayyor bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya sifati barcha pedagoglar jamoasi faoliyatiga bog'liq bo'lsa-da, uslubchining boshqaruv taktikasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirishga yordam berish uchun metodik xizmatning barcha turlari tez o'zgarayotgan davr talablariga mos bo'lishi va ijodiy rivojlanish darajasini yuqori

bosqichga ko'tarishni ko'zlashi zarur. Maktabgacha ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim sharti jamiyat ehtiyojlarini inobatga olgan holda metodik ishlarni yo'lga qo'yish hamda mavjud muammolarni ilmiy-amaliy tahlil qilishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib, bu jarayonda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'рни beqiyosdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars o'tish usullaridan voz kechib, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar va raqamli resurslar integratsiyasidan foydalanish o'quvchilarda nafaqat boy so'z zaxirasini, balki mustaqil fikrlash va muloqotga kirishish qobiliyatini ham jadal shakllantiradi. Pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlash va ularni dars mashg'ulotlari maqsadiga muvofiq qo'llash o'quvchining ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga hamda o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, nutqiy vaziyatlarni modellashtirish va muammoli topshiriqlar orqali bolalarning kommunikativ kompetensiyasi ijtimoiy moslashuv darajasiga ko'tariladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish jarayoni tizimli va texnologik yondashuvni talab etadi, bu esa kelajakda komil shaxs va yetuk mutaxassis bo'lib yetishadigan yoshlarning intellektual salohiyatini belgilab beruvchi asosiy poydevordir. Mazkur yo'nalishdagi ishlarni takomillashtirish maqsadida o'qituvchilarning texnologik savodxonligini muntazam oshirib borish va darsliklardagi amaliy mashqlarni nutqiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi innovatsion elementlar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 128–135-betlar.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. – 44–52-betlar.
3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2008. – 112–118-betlar.
4. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. – Toshkent: "O'qituvchi", 1995. – 67–74-betlar.
5. Matchonov S. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Sharq", 2012. – 156–163-betlar.
6. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Nosir", 2009. – 210–218-betlar.
7. Ziyodova T. O'quvchilarning nutqini o'stirish yo'llari. – Toshkent: "O'qituvchi", 2002. – 35–41-betlar.
8. Vygotsky L.S. Thought and Language. – MIT Press, 1986. – pp. 114–121.
9. Johnson D.W., Johnson R.T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. – Allyn & Bacon, 1999. – pp. 88–95.
10. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2001. – pp. 153–160.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.